

O'TKIR HOSHIMOVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI (*"Urushning so'nggi qurboni"* hikoyasi misolida)

Tuliboyeva Gulsevar Zafar qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti bosqich talabasi
tuliboyevagulsevar@gmail.com
Yusupov Sardor Shodi o'g'li,
ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr o'zbek adabiyotida o'zining o'chmas izini qoldirgan adib O'tkir Hoshimovning obraz yaratish mahorati haqida so'z boradi. Yozuvchining tasavvuridagi voqelikni yorqin ifodalash uning badiiy obraz yaratish mahoratiga bog'liq. Badiiy obraz mahorat san'atini mukammal egallagan yozuvchigina o'z tasavvurlarini hayotiy, vijdonli voqelantira oladi. O'tkir Hoshimovning obraz yaratish mahorati hikoyalar misolida, aynan "Urushning so'nggi qurboni" misolida yoritib berildi.

Kalit so'zlar. Badiiy obraz, O'tkir Hoshimov, hikoya, xarakter, timsol, personaj, yozuvchi mahorati.

O'TKIR HOSHIMOV'UN KARAKTER YARATMA USTALIĞI (*"Savaşın Son Kurbanı"* Hikâyesi Örneğinde)

Tuliboyeva Gulsevar Zafar kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi
Yusupov Sardor Shodi o'g'li,
bilimsel danışman, Özbek dili ve edebiyatı bölümü asistanı

Özet. Bu makalede, 20. yüzyıl Özbek adasında silinmez bir iz bırakan yazar O'tkir Hashimov'un bıraktığı imajı yaratma becerisinden bahsedilmektedir. Yazarın gerçekliği ifade etme hayal gücü, sanatsal imaj yaratma becerisine bağlıdır. Sanatsal imaj yetenekli bir sanattır, yalnızca bir yazar bu konuda mükemmel bir şekilde ustalaşmıştır, onun hayal gücü hayati, vicdanlı bir düzenlemeydi. O'tkir Hashimov'un imaj yaratma yeteneği, "Savaşın Son Kurbanı" adlı hikaye örneğinde vurgulandı.

Anahtar kelimeler. Sanatsal imaj, O'tkir Hashimov, hikaye, karakter, sembol, karakter, yazarın becerisi.

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЎТКИРА ХОШИМОВА (На примере рассказа «Последняя жертва войны»)

Тулибоева Гулсевар Зафар кизи,
студентка Узбекско-Финского педагогического института
Юсупов Сардор Шоди угли,
научный руководитель, ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье рассказывается о творчестве писателя Откира Гашимова, оставившего неизгладимый след в узбекской литературе XX века. От его образа зависит умелое изображение действительности в воображении писателя. Только писатель, овладевший искусством художественного образа, может воплотить свою фантазию в жизнь и добросовестно. Характерные качества Откира Гашимова были освещены на примере рассказов, а именно «Последняя жертва войны».

Ключевые слова. Художественный образ, Откир Гашимов, сюжет, персонаж, символ, персонаж, писательское мастерство.

**O'TKIR HOSHIMOV'S MASTERY OF CHARACTER CREATION.
(A Case Study of the Short Story "The Last Victim of War")**

Tuliboyeva Gulsevar Zafar qizi,

Student of Uzbek-Finnish pedagogical institute

Yusupov Sardor Shodi o'g'li,

scientific advisor, assistant of the Department of Uzbek Language and Literature

Abstract. *This article discusses the image skills of the writer O'tkir Hoshimov, who left his indelible mark on the Uzbek literature of the 20th century. The skillful expression of the reality in the writer's imagination depends on the image he depicts. Only a writer who has perfectly mastered the art of artistic image skills can bring his imagination to life, conscientiously. O'tkir Hoshimov's image skills are illustrated by the example of stories, namely "The Last Victim of War".*

Keywords. *Artistic image, O'tkir Hoshimov, story, character, symbol, personage, writer's skill.*

Badiiy asar borki, unda xarakter, timsol, personaj kabi atamalar mavjud. Kichkinagina hikoyada xarakterning tiniq bir nuqtasi, bir necha misrali she'rdagi xarakter kayfiyati, munosabati tasvirlanadi. "Obrazlilik - san'atning asosiy xususiyati hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli va usulidir. Badiiy obraz esa, obrazlilik tushunchasining o'ziga hisoblanadi" [3, 41 b.].

Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir [1, 63 b.].

O'tkir Hoshimovning ijod borasidagi mushohadasidan talabchanlik, tirishqoqlik, mas'uliyatlik hissi bo'y ko'rsatadi. Yozuvchi hayotiy materialni o'z qalbining dardiga, o'z vijdonining da'vatiga aylantira olishi, mana shu voqea hodisalarning hammasini yurak-yurakdan chuqur his etishi kerak. Avvalo, o'zim katta haqiqat deb bilgan narsani o'zim nihoyatda chuqur his etgan qalbimning dardiga aylangan narsani yozishni hohlayman deydi – yozuvchi O'tkir Hoshimov.

O'tkir Hoshimov o'zining "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi orqali obraz yaratish mahoratini mazkur asardagi obrazlar vositasida to'laqonli yoritib bergan. Misol uchun hikoyadagi Xadicha obraziga nazar tashlasak. U juda qizg'anchiq, injiq, betgachopar, o'quvchining ko'z oldida salbiy qahramon sifatida gavdalanadi. Ammo biz ya'ni ushbu asarni o'quvchi vaziyatga boshqa tomondan qarashimiz kerak. Yozuvchi ta'biri bilan aytganda, "zamon qalqigandan so'ng yomonning ko'payishi", ularning sigiri o'g'irlanishidagi voqeadagi Xadichaning qanchalik kuyinishi, Umri xola, Shoikrom va uning suhbatlari o'rtasida "hozir tug'gan bo'lardiya" [2, 10 b.] jumlasining ishlatilishi uning qanchalik kuyunchak inson ekanligidan dalolat beradi.

Ijodkor hikoyadagi yana bir qahramoni, ya'ni Shoikrom obrazini juda chorasiz, kambag'al, ro'zg'or tashvishlaridan zerikkan inson sifatida tasvirlaydi. Shoikromning ichki kechinmalari va qashshoqlik sharoitida yashashlari urushning qanday oqibatlariga olib kelganligini ochib beradi.

U o'zi tasvirlaganidek "Kambag'alning ekkani unmaydi bolasi ko'payadi" [2, 8 b.] gaplari bu hayotdan ancha toliqqan insonni gavdalandirgan. Adib birgina Shoikrom obrazi orqali butun boshli urush jabrdiydalarini, unga o'xshagan juda ko'p insonlarni mahorat bilan tasvirlab bergan. Asarda yana bir asosiy obraz e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Bu Umri xola obrazidir. Ijodkor ushbu obrazni yaratayotganda unga haqiqiy ona siymosini bera olgan. Mazkur qahramon, asosan, jonini ayamaydigan, bardoshli ona sifatida aks etadi. Umri xola o'zining kasalmand o'g'li

Shone'mat uchun Shoikromning hovlisidagi qulupnaylardan olib, uni sutga alishtirmiqchi bo'lgan-u lekin u Shoikrom qo'ygan tokli simlarga ilashib ayanchli holatda vafot etishi juda ta'sirlidir.

Asar nomi ham mana shu Umri xola bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki Umri xolani dafn qilib qaytishayotganda odamlar "urush tamom bo'libdi" degan gaplarni eshitishadi va o'z -o'zidan ko'rinib turibdiki, Umri xola "Urushning so'nggi qurboni" edi....

Bu asarimizda yana bir qahramoni ko'zga tashlanadi. Bu Ilhom somavarchining xotini edi. Bu ayolning atiga bittagina echkisi bor edi. Bir kuni uni uyiga o'g'ri tushib o'sha echkisini o'g'irlab ketadi va shu ayolni ham pichoqlab ketadi. Ertalab uni qonga belanib yotganini qo'shnilari ko'rib qolishadi. Bu kichik obraz bo'lishiga qaramay, juda ta'sirli va ayanchli holatda tasvirlagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'tkir Hoshimov bu hikoyasi orqali barcha qahramonlarning ichki kechinmalarini ham juda ta'sirli holatda tasvirlagan. Bu asarni o'qigan insonlar bu oddiy to'qima hikoya emas balki bu real voqealarga asoslanib yozilgan deb o'ylashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004 y. 224 b.
2. O'tkir Hoshimov. Shaharlik kuyov: hikoyalar. O'tkir Hoshimov. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. - 128 b.
3. Тўхта Бобоев. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, "Ўзбекистон", 2001, 559 б.
<https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=6>